

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙЛИК ТИЙКАРЛАРИ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

TALABALARNING OILAGA NISBATAN MAJMUAVIY BILIMLARINI AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH TROYEKTORIYASI

Alikulova M.Sh.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Tayanch soʻzlar: oila, talaba, aksiologiya, qadriyat, yondashuv, taʼlimiy, tarbiyaviy, omillar.

Ключевые слова: семья, студент, аксиология, ценность, подход, образовательный, воспитательный, факторы.

Key words: family, student, axiology, value, approach, educational, educational, factors.

Dunyoda keyingi yillarda oilaning ijtimoiy maqomini kuchaytirish, unda sogʻlom ijtimoiy-psixologik muhitni barqarorlashtirish global muammolar qatoriga kiritilmoqda. Zero, oila oʻz funksiyasiga koʻra jamiyat va davlatga har tomonlama sogʻlom avlodni tarbiyalab berishga masʼul hisoblanadi.

Ijtimoiy hayot jarayonida, ayniqsa, oilada yoshlar kichikligidayoq oilaviy qadriyatlarni oʻzlashtiradilar va ularga amal qilishni oʻrganadilar. Shu bilan birga, bu qadriyatlar yoshlarning oila va nikohga sadoqatini, sevgiga vafodorligini tarbiyalashga xizmat qiladi. Biroq, hozirgi axborotlar asrida yoshlarning oilaviy qadriyatlarga xos ijobiy munosabatini shakllanishiga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi omillar nihoyatda koʻpayib bormoqda. Bizningcha, bular quyidagilar:

ommaviy madaniyatning turli shakllari;

internet;

terrorizm;

oiladagi nosogʻlom muhit;

shaxsning atrofda nosogʻlom fikrlovchi doʻstlari va boshqalar.

Olib borgan kuzatishlarimiz natijasiga koʻra shuni taʼkidlash joizki, ushbu salbiy omillarning barchasi oilada yoshlarning amaliy faoliyatiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Ayniqsa, koʻpchilik yoshlarimizda ommaviy madaniyatning turli



shakllari va internetga tobelik ortib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida yoshlarda oilani qadriyat sifatida anglashiga to‘sqinlik qilib, ularda oilaga nisbatan beparvolik, loqaydlik va mas‘uliyatsizlikning avj olishiga sabab bo‘lmoqda.

Talabalarining oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirish quyidagi bilimlarni egallashlari asosida amalga oshirilishi mumkin:

- Oila – faoliyati har bir a‘zoning o‘z vazifalari va cheklovlarini tushunishiga asoslangan tashkilot ekanligini talabalar anglashi;
- oila a‘zolari o‘zaro iliq va do‘stona munosabatlarni o‘rnatish uchun birgalikda harakat qilishlari kerakligi;
- shaxslar faqat teng huquqli shaxs sifatida hamkorlik qilishlari mumkin, ya‘ni oilaning har bir a‘zosi bir-birini teng huquqli shaxs sifatida hurmat qilishni o‘rganishlari;
- ta‘limda kuchdan ko‘ra aql ko‘proq yordam beradi;
- ota-onalar bolalar bilan nizolardan qochishlari va ular bilan munosabatlarda maslahatchi va yetakchi sifatida harakat qilishlari, o‘zaro hurmatga asoslangan oilaviy muhitga erishishga intilishlaridir.

Tenglik, erkinlik va mas‘uliyat tamoyillariga amal qilishining tabiiy natijasi hamkorlik ekanligini talabaga tushuntirish. Chunki, oilaning har bir a‘zosi hamma bilan oilaning umumiy manfaati yo‘lida harakat qiladi. Hamkorlik ko‘nikmalari oila a‘zolarida xavfsizlik hissini yaratadi va keyingi hayotda o‘z harakatlarining to‘g‘riligiga ishonch hosil qiladi.

Talabalarining oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirish vazifasiga mos keladigan pedagogik usullar tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- talabalarda sheriklik, nikoh va ota-onalik masalalari bo‘yicha o‘z-o‘zini bilish va o‘zaro baholashning toifali apparatini shakllantirish maqsadida oila muammolariga oid maxsus adabiyotlar, psixologik-pedagogik lug‘atlar, diagnostik so‘rovnomalar bilan faol ishlashni tashkil etish;
- talabaning oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarning umumlashtirilgan modelini mustaqil, ijodiy qurish va uni amalga oshirish imkoniyatlarini muhokama qilish;
- talabalarni oila ichidagi va oilalararo o‘zaro munosabatlardagi boshqa odamlarning harakatlarini ko‘rsatish, namoyish etish va muhokama qilish (ommaviy axborot vositalari, ilmiy-ommabop dasturlar, adabiy manbalar asosida) orqali talabaning ushbu vaziyatlarda o‘z munosabati va harakatlarini bashorat qilishi;


- guruhning birgalikdagi faoliyatining turli shakllarida faol ishtirokchi sifatida ishtirok etish, o‘zaro ta‘sirning boshqa ishtirokchilari bilan hamkorlik qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish (individual va guruh vazifalarini bajarish, ijodiy loyiha ustida ishlash, turli tadbirlarida qatnashish va boshqalar);
- boshqa odamlarning munosabatlarini, xatti-harakatlarini tahlil qilish, keyinchalik umumlashtirish va ularning oilaviy munosabatlar uchun eng muhim bo‘lgan barqaror shaxsiy fazilatlarini to‘g‘risida bilimlarga ega bo‘lish;
- o‘z munosabati va harakatlarini aks ettirish, so‘ngra “men”ning namoyon bo‘lgan fazilatlarini to‘g‘risida xulosa chiqarish, dialogik fikrlash va kommunikativ moslashuvchanlik ko‘nikmalarini rivojlantirish (psixologik va pedagogik muammolarni hal qilish, universitetning yosh oilalari uchun tanlovlar);
- talabalarining shaxsiyatini yoshlar munosabatlarini o‘rganishga hamkorlikda tadqiqotchi sifatida kiritish, oila to‘g‘risida bilimlarini rivojlantirishning mazmun-uslubiy apparatini qurishda ishtirok etish. (kurs va diplom loyihalari ustida ishlash, o‘zlarining ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlarini olib borish).

Talabalarining oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirish troyektoriyasi quyidagicha amalga oshiriladi.

Talabalarining oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirishga oid nazariy va metodik ishlarni amalga oshirish pedagogik ta‘lim sohasining barcha yo‘nalishlarda “Oilaviy bilimlar majmuasi” maxsus dasturini ishlab chiqish; tyutorlarning axborot-ma‘naviyat soatlarini milliy mazmunda boyitish; talabalarni oila faoliyatga tayyorlashga yo‘naltirilgan turli seminar-treninglar tashkil etish kabi aksiologik yo‘nalgan tashkiliy ishlarni bajarish; talabalarni aksiologik yondashuv asosida bilimlarini rivojlantirishning innovatsion, motivatsion, intellektual imkoniyatlari aniqlanib, aksiologik ta‘lim muhitini yaratishning metodik ta‘minoti: o‘quv-uslubiy manbalar, elektron ta‘lim resurslarini takomillashtirish, ularning mazmuniga tadqiqot g‘oyalarini singdirish. Aksiologik yo‘nalgan tarbiyaviy ishlarda-talabalarining hozirgi holatini “Assesment” texnikasida tahlil qilib, istiqbol rejalarini “Assesment”, “SWOT”, “SMART”, “Shaxsiy fikr” usulida ishlab chiqish va uni amalga oshirish; aksiologik yondashuvni joriy etishning innovatsion didaktik tuzilmasi, o‘quv-bilish faoliyatini aksiologik yondashuv asosida talabalarining oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini rivojlantirish,



Talabalarning oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirish troyektoriyasi



oilaviy faoliyatga ma'naviy-axloqiy tayyorlash tadbirlarini ishlab chiqish va tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish;

Bizning tadqiqotimizda talabalarining darsdan tashqari mashg'ulotlari yoshlarning oilaviy munosabatlarga shaxsiy tayyorgarligini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarga ega degan xulosaga keldik.

Bu taxmin, birinchi navbatda, qo'yilgan muammoning dolzarbligi va eng katta maqsadlilik, faollik, har qanday tashabbusda tashabbuskorlik, dialogli muloqotga ochiqlik, muvaffaqiyatli nikoh va oilaviy o'zini-o'zi amalga

o'shinishga qiziqish bilan ajralib turadigan yosh talaba muhitining o'ziga xos xususiyatlari bilan asoslanadi; ikkinchidan, bu zamonaviy ijtimoiy sharoitlarda universitetda guruhdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning yangi shakllariga bo'lgan talab bo'lib, uning maqsadi innovatsion tipdagi ijtimoiy-madaniy muhitni yaratishdir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, tadqiqot ishimizda taklif etilayotgan dastur asosidagi metodlar, pedagogik-psixologik trening mashg'ulotlari, ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlar talabalarni oilaganisbatan bilimlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, qadriyatli yondashuv asosida maqsadli ravishda rivojlantirish va kerak bo'lsa, psixokorreksiya qilish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Bu jarayon talabalarda, eng avvalo, atrof-muhitni teran idrok qilib, o'z his-kechinmalarini erkin bayon etish, mavjud pedagogik-psixologik to'siqlarni bartaraf eta olish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Adabiyotlar:

1. Safarov O., Mahkamov M. Oila ma'naviyati. Uslubiy qo'llanma – T.: Ma'naviyat, 2009. – 248 b.
2. Xasanboyeva O. Oila pedagogikasi. Darslik. – T.: Aloqachi, 2007. – 35 b.
3. Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami (30-sentabr, 2021-yil).
4. Бердяев, Н. А. Об иерархии ценностей. Цели и средства / Н. А. Бердяев. – Текст: непосредственный // Судьба России. – М.: Советский писатель, 1990.
5. Аксиологический подход к исследованию ценностных ориентаций подростков в современной социальной ситуации. Л.В. Лидак, Т.А. Тимошенко.

РЕЗЮМЕ

Maqola mazmunida hozirgi axborotlar asrida yoshlarning oilaviy qadriyatlarga xos ijobiy munosabatini shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bartaraf etishda talabalarning oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirish vazifasiga mos keladigan pedagogik usullar ko'rsati o'tilgan. Talabalarning oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirish trayektoriyasi keltirib o'tilgan bo'lib, bunda aksiologik yondashuv asosida tashkiliy-uslubiy ishlar, tarbiyaviy ishlar, ta'limiy ishlar dasturini aniq rejalashtirishni qulay usullari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В содержании статьи рассмотрены педагогические методы, соответствующие задаче развития коллективного знания учащихся о семье, основанные на аксиологическом подходе к устранению факторов, оказывающих негативное влияние на формирование положительного отношения молодежи к семье. Показаны семейные ценности в нынешний информационный век. Дана траектория развития коллективных знаний студентов о семье на основе аксиологического подхода, выделены удобные методы планирования организационно-методической работы, воспитательной работы и программы воспитательной работы на основе аксиологического подхода.

SUMMARY

In the content of the article, the pedagogical methods that correspond to the task of developing students' collective knowledge of the family based on an axiological approach to the elimination of factors that have a negative effect on the formation of a positive attitude of young people to family values in the current information age are shown. The trajectory of the development of students' collective knowledge of the family based on the axiological approach is given, and the convenient methods of planning organizational and methodological work, educational work, and the program of educational work based on the axiological approach are highlighted.